



**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2025-yil, 12-13-noyabr

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE
PHILOLOGY AND TRANSLATION
STUDIES”**
international scientific and practical conference
November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY
AND TRANSLATION STUDIES”**

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV
akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic
“Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat SIROJIDDINOV

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboyev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo‘i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

NAFISIYNING “JANNATNING YARIM YO‘LIDA” ASARIDAGI PERSONAJ PORTRETINING TARJIMADA BERILISHI

Xayrulla Hamidov,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, f.f.d.,

Zulfizarxon Qoraxo‘jayeva,

TDSHU magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada fors yozuvchisi Said Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” romanida qo‘llanilgan personajlar portretining badiiy xususiyatlari va ularning o‘zbek tiliga tarjimada qanday aks etganligi tahlil qilinadi. Asarda portret vositasi orqali insonning tashqi ko‘rinishigina emas, balki uning ichki dunyosi, jamiyatdagi o‘rni va ma‘naviy qiyofasi, asar obrazlari tahlili asosida muallifning tanqidiy realizmga xos uslubi, istehzoli yondashuvi va obraz yaratish mahorati ochib berilgan. Shuningdek, tarjimada portretning badiiy-estetik mazmunini asliyatga sodiq holda yetkazish muhimligi ta‘kidlanib, portret vositasining milliy va ijtimoiy kontekstdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Said Nafisiy, asliyat, badiiy tarjima, asliyat uslubini saqlash, tarjimon mahorati.*

Abstract. This article analyzes the artistic features of character portraits used in the novel “Halfway to Paradise” by the Persian writer Said Nafisi and how they are reflected in the Uzbek translation. Through the means of portraiture, the author not only depicts the external appearance of a person but also reveals their inner world, social position, and spiritual image. Based on the analysis of the novel’s characters, the study uncovers the author’s mastery of critical realism, his satirical approach, and his skill in creating vivid images. Furthermore, the article emphasizes the importance of conveying the artistic and aesthetic meaning of portraits in translation while remaining faithful to the original, and highlights the role of portraiture in the national and social context.

Keywords: *Said Nafisi, original text, literary translation, preservation of author’s style, translator’s mastery.*

Adabiyotshunoslikda “portret” terminiga bir qator ta‘rif keltirilgan. Jumladan, tor ma‘noda **portret** – bir insonning surati, haykali, fotografik yoki boshqa shakldagi tasviri [1, 483], badiiy tasvir, adabiy qahramon obrazi [2, 566] deb ta‘riflanadi. Keng ma‘noda esa portret – adabiy asarda qahramon tashqi ko‘rinishining tasviri: uning yuzi, qaddi qomati, ustidagi libosi, xatti-harakati ifodasidir. Adabiyotda ko‘p uchraydigan psixologik portret orqali adib qahramonning tashqi ko‘rinishi orqali uning ichki dunyosi va xarakterini yashirishga harakat qiladi [3, 325]. Adabiyotshunoslik atamalari lug‘atida esa, portretga quyidagicha ta‘rif beriladi: “**Portret** (fr. *portrait* – tasvirlamoq) personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o‘quvchi ta-savvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. Portret epik asarning kompozitsion unsuri bo‘lmish tavsifning bir ko‘rinishidir” [4, 226].

Badiiy asarda inson obrazi yaratishning muhim vositasi hisoblangan portretni tarjimada to‘laqonli qayta yaratish uchun “tarjimon asar muallifi qo‘llaydigan individual usullar haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi, har bir portret tasvirining xarakterga aloqador nuqtalari, milliy xususiyatlariga e‘tibor qaratishi, portretidagi har bir detalning mazmun-mohiyati va vazifalarini aniqlashi kerak bo‘ladi” [5, 96]. Tarjimashunoslar portret-xarakteristikasini shartli ravishda bir necha guruhga ajratadilar. Ulardan biri personajning tashqi qiyofasi, egnidagi libos, unga tegishli bo‘lgan ashyolar tafsilotini o‘z ichiga olgan ko‘rinishli portret-xarakteristikalaridir. Yana biri – personajning holati tasviri bo‘lib, bunda uning tashqi ko‘rinishidagi o‘zgarishlar vositasida ichki dunyosiga kirib boriladi. Bu yerda personajga beriladigan ma‘naviy-axloqiy ta‘rif muhim ahamiyat kasb etadi [6, 114].

Portret tavsifi badiiy asarda turli vazifalarni bajaradi. Bulardan asosiylari tarixiy, milliy va badiiy vazifalardir. Voqea kechayotgan davr, ijtimoiy-iqtisodiy voqelik, maishiy shart-sharoitlar haqida kitobxonda tasavvur uyg‘otish portret tavsifining tarixiy vazifasiga kiradi. Ikkinchisi milliy

vazifa bo‘lib, bunda qahramonlarning milliy xarakterlari, qaysi millatga mansubligini ko‘rsatuvchi jihatlar ochib beriladi. Portretning badiiy vazifasi shundan iboratki, u asar tilining spetsifik qirralarini aks ettirish, uslubiy o‘ziga xoslikning ma’lum belgilarini ko‘rsatish, asar badiyatining estetik-emotsional jihatidan to‘laqonli bo‘lishini ta’minlashdan iborat. Zero har qanday badiiy asarda tarixiylik, milliylik, badiiylik, ma’rifiylik va boshqa belgilar mujassam bo‘ladi. Shu bois portret-xarakteristikasining tarjimada qanday berilganligini aniqlash tarjimaning sifati va tarjimon mahoratining qirralarini o‘rganish jarayonida asosli xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Ushbu maqolada Eron adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri, yozuvchi Said Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asari qisman tahlil qilinib, undagi portret tavsiflarining o‘zbek tiliga tarjimasida qanday berilgani xususida mulohazalar bildirildi. Muallif asarda portret san’atidan nafaqat personajning tashqi ko‘rinishi, balki uning ijtimoiy maqomi, ruhiy holati va davrga xos holatlarni yoritish vositasi sifatida foydalangan. Asardagi portret tavsiflari orqali obrazlar faqat shaxs emas, balki muayyan ijtimoiy qatlamning, madaniy muhitning, jamiyatdagi an’ana va urf-odatlarining ifodasi sifatida ham yuzlana oladi.

Nafisiy o‘z asarida badiiy portret vositasidan foydalanish orqali nafaqat personajning tashqi ko‘rinishini, balki uning ichki dunyosi, aqliy va ma’naviy darajasini ham samarali ochib beradi. Asarda yozuvchining tanqidiy realizm uslubi, badiiy obrazlar orqali jamiyatdagi salbiy tiplarni fosh etishga qaratiladi.

Asarda bir ayol portreti alohida e’tiborni tortadi. U orqali ijtimoiy stereotiplar, tashqi ko‘rinishga berilgan haddan ortiq e’tibor va bu holatning ruhiy-madaniy ildizlari fosh etiladi: خانم برون پرور هم مثل هزاران خانم دیگر دستگاہ اعیانی طهران هر روز باریک میشود و بزحمت بسیار بارنج جانکاهی که گاهی چشمش را پر از اشک میکند درین غلاف عجیب و غریب که دو ثلث از بدنش را در خود تحلیل میبرد یعنی رویهم میفشارد فرو میروود و ساعتها درد و تعب برخورد هموار میکند تا در نظر مردم چه مرد و چه زن لاغر تر و باریکتر و جوان تر و ترو تازه تر نمود کند، حتی مردمی که میدانند ما شاء الله ماشاء الله چشم کف پاش سال چرب از عمر شریفشان می گذرد او را دختر [7, 12].

Said Nafisiy portret vositasida nafaqat tashqi ko‘rinishni aks ettirgan, balki insonning ichki dunyosi, ijtimoiy mavqei, ma’naviy holati, jamiyatdagi stereotiplar va axloqiy buzilishlarni aks ettirgan. Asardagi Manuchehr Davlatdo‘st, Nohidjon va Borunparvar xonim kabi obrazlar portreti orqali yozuvchi ijtimoiy tanqid, istehzo va madaniy kontekstni ham o‘quvchiga yetkazgan. Fors tilidagi parchaning satr osti tarjimasi quyidagicha: *Bo‘runparvar xonim ham Tehrondagi minglab boshqa zodagon ayollar singari har kuni ozg‘in ko‘rinishga intiladi. Buning uchun u o‘zini nihoyatda mashaqqatli va jon og‘ritadigan usullarga soladi, hatto ba‘zan ko‘zlari yoshga to‘ladi. U tanasining uchdan ikki qismini siqib turuvchi g‘alati va noodatiy bir qobiq ichiga kiradi. Shunchaki odamlar – erkakmi, ayolmi farqi yo‘q – uni yanada ozg‘inroq, nozikroq, yoshroq va tetikroq deb o‘ylashlari uchun soatlar davomida og‘riq va azobga chidaydi. Maashaalloh, uning sharafli umrining allaqachon qirq yili o‘tganini biladigan odamlar ham, baribir uni o‘n olti yoshli qiz deb hisoblashlarini istaydi.*

Ushbu parchada Bo‘runparvar xonim obrazi orqali muallif Tehron zodagonlari orasida hukm surgan sun‘iy go‘zallik me‘yorlari, tashqi ko‘rinishga mutlaqlashtirilgan e’tibor va bu holatning kamsituvchi ijtimoiy ildizlarini fosh etadi. Xonim har kuni qiyinchilik bilan korset taqib, badanining katta qismini siqib, soatlab o‘zini qiynaydi – bu esa, nafaqat jismoniy og‘riq, balki ruhiy bosim ham beradi insonga. Matnda uning ko‘ziga yosh kelishi, holsizlanib qolishi tasvirlangan bo‘lsa-da, u baribir jamiyat ko‘zida yosh, nozik, go‘zal ko‘rinishga intiladi. Bu istak esa tabiiy emas, balki muayyan ijtimoiy me‘yorlar ta’sirida shakllangan majburiyatdir. Aytish mumkinki, Bo‘runparvar xonimning portreti orqali muallif erkaklar nazarida “jilolangan ayol” qiyofasini emas, balki bu jilo ortida yashiringan azob, siquv va yolg‘on ochib tashlanadi. Ayol o‘zidan ikki baravar kichik

bo‘lishga, yosharishga harakat qiladi, hatto bu bilan jamiyatni, yaqinlarini, o‘zini ham aldashga tayyor. Nafisiy aynan shu manzarani istehzo bilan tasvirleydi, bu istehzo esa obrazning tabiiy emasligini, soddalik va samimiyatdan yiroqligini ochiqleydi.

Romanni o‘zbekchaga o‘g‘irgan A. Habibullayev parchani quyidagicha beradi: *“Bo‘runparvar xonim Tehronning ko‘pgina tannozi kabi har kuni ming mashaqqatlar bilan korset taqib ingichka bo‘lib oladi. Bunday paytlarda ba‘zan bechoraning ko‘zlari yoshga to‘ladi. Badanning uchdan ikki qismini xipcha qilib, siqib turadigan g‘alati bir g‘ilofga kirib oladi. Odamlarga ayolmi, erkakmi baribir, ozg‘inroq, ixchamroq, yoshroq va durkunroq bo‘lib ko‘rinish uchun soatlab azob chekib yuradi. Umrlaridan, ko‘z tegmasin, qirq yilini urib qo‘yibdilaru hatto bundan xabardor kishilarga ham o‘n olti yashar qiz bo‘lib ko‘ringilari keladi”* [8, 11].

O‘zbekcha tarjimada portret detallari asliyatdagi mazmunni to‘laqonli saqlab qolgan. Tarjimon matndagi kinoyaviy ifodalarni, estetik shartli detallarni (masalan, “xipcha qilib, siqib turadigan g‘ilof”) ham mahorat bilan qayta yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Ayniqsa, “hatto bundan xabardor kishilarga ham o‘n olti yashar qiz bo‘lib ko‘ringilari keladi” jumlasini orqali ayolning o‘z yoshini inkor etishga tayyor darajadagi ruhiy bosimda yashayotganini ochib berar ekan, asliyat uslubini to‘la saqlay olgan. Bu yerda ayollik tushunchasining jamiyat bosimini chetlab o‘tolmagan dramatik jihati namoyon bo‘ladi. Demak, Bo‘runparvar xonim portreti nafaqat badiiy obraz, balki ayolga bo‘lgan jamiyatning yondashuvi, tashqi ko‘rinishning bahosi va ayollar shaxsiyati ustidan nazorat qilish kabi murakkab ijtimoiy muammolarni ochib beruvchi vosita hisoblanadi. Muallif personaj portreti orqali g‘ayriinsoniy go‘zallik andozalarini tanqid qiladi va ayolning haqiqiy qadrini jismoniy shakl emas, balki insoniylik mezonida ko‘rishga undaydi.

Romanda Maryam Xirojsiton xonim obrazi unutilmas qiyofa sifatida taqdim etilgan: از روزی که موهای پیشانی خانم رو بسفید شدن گذاشته هر روز صبح که جلو آینه قدی زانو میزند يك مشت بیشتر از روز پیش موهای جلوی سر را از ریشه میکند و اینک مانند مرغ لاری که سرش گر شده و کاکلی در فرق سرش باقی مانده است يك مشت موی سرخ حنایی که معلوم نیست با چه مهارتی آنها را باین رنگ در می آورد مانند کاکل زرتهای اول پاییز که سرخ و سفید است سرخ حنایی که معلوم نیست با چه مهارتی آنها را باین رنگ در می آورد مانند کاکل زرتهای اول پاییز که سرخ و سفید است. آخرین ته مانده سطوت و شوکت این بیچاره پرچانه است [7, 15]. Parchaning taglama tarjimasi quyidagicha: *“Xonimning peshanasi oldidagi sochlar oqara boshlagan kundan beri u har kuni ertalab to‘liq oynaning oldida cho‘kkalab o‘tiradi va avvalgidan ham ko‘proq miqdorda oldingi sochlarini ildizidan yulib tashlaydi. Endilikda u bo‘ynida pati yo‘q tovuqqa o‘xshardi, faqat tepasida bir kokil qolgan. U bir tutam qizil soch – qanday qilib bu rangga kiritgani noma‘lum – kuzgi jo‘xori boshloqlarining oq-qizil rangidagi kokiliga o‘xshaydi. Bu bechora vaysaqi kampirning izzat va sha‘nidan qolgan so‘nggi belgi ham shu edi”*.

Parchada Maryam Xirojsiton xonim obrazini nafaqat keksa ayolning tashqi ko‘rinishi, balki butun bir avlodning, ijtimoiy qatlamning tanazzulga yuz tutgan timsoli aks ettirilgan. Sochlari oqara boshlagan ayol har kuni oyna oldida cho‘kkalab, sochlarini ildizidan yulib tashlab “kal tovuq”qa o‘xshab qoladi. Ushbu tasvir ayolning shaxsiy fojiasi va jamiyatning ayolga nisbatan qo‘ygan go‘zallik talablari orasidagi ziddiyatni ko‘rsatadi.

Alimulla Habibullayev tarjimasi: *“Bu xonim peshanasidagi sochiga oq tushgan kundan boshlaboq, har kuni ertalab oyna oldida cho‘kkalab, kun sayin ko‘payib ketayotgan oq tolalarni yulib tashlayverganidan, mana endi kal tovuqqa o‘xshab, tepasida bir kokil qolibdi. Kuzgi jo‘xori so‘tasining och pushti rang kokiliga o‘xshab turgan bir tutam qizg‘imtir soch, xudo biladi, uni qanday qilib bu rangga kiritgan, vaysaqi kampirning ulug‘vorligi va sha‘nidan oxirgi nishona edi”* [8, 14]. Parchadagi «مرغ لاری» (*bo‘ynida pati yo‘q tovuq*) va «کاکلی زرتهای اول پاییز» (*kuzgi jo‘xori kokillari*) kabi metaforalar portret detalining ramziy yukini kuchaytiradi. Ayniqsa, boshining o‘rtasida qolgan “qizg‘ish rangdagi” bir tutam soch “oxirgi salobat va sha‘n” ramziga aylantiriladi. Bu yerda tashqi ko‘rinish orqali insonning ichki dunyosi, ruhiy halovatsizligi va o‘tgan zamonlar hasrati ifodalanadi.

Tarjimada metaforik strukturalar milliy kontekstga mos holda to‘g‘ri va ta’sirli ifoda etilgan. Ayniqsa, “kal tovuq”, “och pushti rang”, “ulug‘vorlik va sha‘ndan qolgan oxirgi nishona” kabi iboralar o‘zbekcha matnda ham o‘zining estetik kuchini saqlab qolgan. Xulosa qilib aytganda, Maryam Xirojsiton portreti orqali muallif ayol obrazidagi keskin o‘zgarishni tanqidiy ruhda ochib beradi, agar ilgari u jamiyatning “guli” bo‘lgan bo‘lsa, endilikda eskirgan, unutilgan, faqat tashqi qobiqdan umid qiluvchi bir siymoga aylanganini ko‘rish mumkin. Umuman, tarjimada asliyat matni ham uslubiy, ham estetik jihatdan qayta yarata olingan.

Asar qahramonlaridan Og‘oyi Shayx Hodi Tayyibiy portreti alohida e’tiborga sazovor: قد متوسط و اندام پست و جثة نسبة درشت و قیافه بی بو و خاصیت وی که هیچیک از محسنات و معایب قیافه شناسی در آن نیست معجون عجیبی از خلقت بشریست و راستی بآفریدگار دست مریزاد باید گفت که چنین هیولایی از قالب بدر آورده که نه کسی میتواند بگوید خوبست و نه بد، نه کسی می تواند زیباییش بداند و نه کسی میتواند زشتش بیندارد، معلوم نیست هوش دارد یا ندارد، فهم دارد یا ندارد، علم دارد یا ندارد، زبان دارد یا ندارد خوابست یا بیدارست، مرده است یا زنده است، شریف است یا خبیث است انسانست یا حیوانست، مردست یا زنست، غیرت دارد یا ندارد، دل دارد یا ندارد، سرما و گرما و گرسنگی و بی‌خوابی و غم و غصه و درد را حس می‌کند یا نمیکند. من یقین دارم که تاکنون چنین معمایی در عالم خلقت پیدا نشده است. آیا کسی در جهان هست که وقتی اگر هم یکدقیقه بوده باشد او را متأثر دیده باشد و کسی هست که وجد و نشاط و سرور و شادی در سیمای از سنک سخت تر او دیده باشد؟ سرتاپای او مانند سرتاپای وزغ نه حالی دارد و نه حالتی را نشان می‌دهد. مثل خزه ای که در کنار جوی [7, 53-54] یا بر ساقه درختی روییده باشد نه جانورست، نه گیاه و نه جماد. نه می‌شکند و نه می‌شکاند، نه می‌سوزد و نه می‌سوزاند. Parchaning satr osti tarjimasi: “*O‘rta bo‘y, kalta gavda, nisbatan yirik tana va na hidi, na xususiyati bo‘lgan chehra – unda insoniy nuqtayi nazardan na bir fazilat, na bir nuqson topilmaydi; u insoniyat yaratilishining g‘alati bir aralashmasidir. Darhaqiqat, bunday maxluqni paydo qilgan Xudoga qoyil qolmasa bo‘lmaydi: uni na yaxshi, na yomon deb bo‘ladi; uni na chiroyli, na xunuk deb atash mumkin. U aqlli ekanmi, yo‘qmi, tushunadimi, yo‘qmi, ilmi bormi, yo‘qmi, tili bormi, yo‘qmi, uxlayaptimi yoki uyg‘oqlikdami, tirikmi yoki o‘likmi, oliyhimmatmi yoki pastkormi, insonmi yoki hayvonmi, erkakmi yoki ayolmi, g‘ururi bormi yoki yo‘qmi, yuragi bormi yoki yo‘qmi – bularning barchasi noma‘lum. U sovuq, issiq, ochlik, uyqusizlik, g‘am, tashvish va og‘riqni his qiladimi yoki yo‘qmi – hammasi noma‘lum. Ishonchim komilki, yaratilish olamida bungacha bunaqa sirli mavjudot hali yo‘q edi. Dunyoda uni hech bo‘lmaganda bir daqiqaga bo‘lsa ham ta’sirlangan holda ko‘rgan odam bormi? Uning toshdan ham qattiq chehrasida quvonch, shodlik, xursandchilikni sezgan odam bormi? U boshdan-oyoq qurbaqaga o‘xshaydi: na ruhiy holat bor, na bir holatni aks ettiradi. Ariq bo‘yida yoki daraxt tanasida o‘sadigan po‘panakka o‘xshaydi: u na hayvon, na o‘simlik va na jisimiy modda. U na sinadi, na sindiradi; na yonadi, na yoqadi*”.

Nafisiy salkam bir sahifani egallagan parcha orqali inson obrazini nafaqat tashqi ko‘rinish, balki mavjudlik va mohiyat nuqtayi nazaridan dekonstruksiya qiladi. Og‘oyi Shayx Hodi Tayyibiy obrazi “odamiylik” degan tushunchaning o‘zi muammoga aylangan bir mavjudot sifatida tasvirlanadi. Matnda portretning klassik tushunchalari butunlay inqirozga uchragan – bu yerda qahramon na chiroyli, na xunuk; na tirik, na o‘lik; na inson, na hayvon; hatto na erkak, na ayol sifatida tasvirlanadi. U mutlaq betaraflik va mohiyatsizlik ramziga aylanadi. Masalan, “sرتاپای او مانند سرتاپای وزغ” (“boshdan-oyoq qurbaqani eslatadi”), “مثل خزه ای” (“ariq bo‘yidagi po‘panakka o‘xshaydi”) kabi tasvirlar bu obrazni absurd darajadagi betaraflik va shaxsiyatsizlikka olib keladi. Bu nafaqat individning emas, balki butun bir ijtimoiy qatlamning “bo‘sh”ligini tanqid qilishdir.

Yuqoridagi parcha mohir tarjimon A.Habibullayev talqinida quyidagicha berilgan: *Doktor Tayyibiy nomi bilan mashhur bo‘lgan og‘oyi Shayx Hodi Tayyibiy o‘rta bo‘y, to‘ladan kelgan, jussasi yirik, sovuq qiyofali bu odamning tashqi ko‘rinishida maqtovga sazovor hech nima topa olmaysiz. Ochig‘ini aytganda, shunday bir mavjudotni yaratgan parvardigorga qoyil qolasiz. Chunki uni na yomon deb bo‘lardi, na yaxshi deb. Xunuk ham emas, xushro‘y ham. U uxloqmi, uyg‘oqmi, o‘likmi, tirik, yaxshimi, yomon, buni hech kim aytolmasdi. Uning na inson, na hayvon, na erkak, na ayol, na*

g'ayratli, na tanbal ekanini ham anglash qiyin. Qahraton sovuq bilan jazirama issiqni, ochlik bilan uyqusizlikni, g'am-g'ussayu dard-alamni his qila oladimi-yo'qmi, bu noma'lum. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, bunaqangi muammoli xislatni yorug' jahon ko'rgan emas. Uni bir daqiqa bo'lsa ham qayg'uli holda ko'rgan kimsa bormi jahonda?! Uning toshdan ham qattiq yuzida biror marotaba hayajon, surur va shodlik ifodasini kim ko'rgan? U boshdan-oyog'igacha qurbaqani eslatardi. Ariq bo'ylari va daraxt tanalarini qoplab yotgan po'panaklarga o'xshab na o'simlik, na hayvon va na biron qattiq modda ham emas. Na sinadi u, na sindiradi, na yonadiyu na yondiradi [8, 54-55].

Tarjimada ushbu murakkab portret yuksak badiiy aniqlik va adekvatlikda berilgan. U “toshdan ham qattiq yuzida biror marotaba hayajon, surur va shodlik ifodasini kim ko'rgan?” kabi iboralar bilan muallif uslubini asliyatga xos kuchda aks ettirishga muvaffaq bo'lgan. Ayniqsa, “Na sinadi u, na sindiradi, na yonadiyu na yondiradi” satrlari originaldagi falsafiy nihoyasizlik hissini kuchli obrazlilik bilan berib, obrazning mutlaq passivlik va inertlik holatini yanada chuqurlashtiradi. Tarjimada yozuvchining keskin tanqidini yo'qotmasdan, uni o'zbek tilining obrazli ifoda vositalari bilan boyitgan. Ayniqsa, “qurbaqani eslatardi”, “po'panaklarga o'xshab” kabi tasvirlar asliyatga yaqin bo'lsa-da, milliy madaniy kodga moslashtirilgan holda ishlatilgan.

Umuman olganda, ushbu parchada klassik portret chizishdan ko'ra, inson qiyofasi orqasida yashiringan jamiyatning befarqligi, ma'naviy halokati va tanazzuli aks etgan. Tarjimon ham muallifga xos uslubni maksimum saqlagan holda, o'zbek kitobxoniga tushunarli tarzda ifodalab bera olgan.

Yuqorida keltirilgan misollar asosida xulosa qilish mumkinki, portret san'ati tarjimada juda nozik yondashuvni talab qiladi. Chunki portret – bu shunchaki tashqi tavsif emas, balki obrazning ichki mohiyatini ko'rsatadigan ko'zgu bo'lib xizmat qiladi. Tarjimonda bu ko'zgu xiralashib qolmasligi uchun u muallif stilistikasi, til ifodasi, estetik kontekst va konnotativ detallarga e'tiborli bo'lishi lozim. Said Nafisiy romanining o'zbek tiliga tarjimasida portret detallari asosiy badiiy ma'no va ruhiyatni saqlagan holda berilgan. Tarjimon matnning mazmuniy og'irligini buzmasdan, obrazlar ta'sirchanligini o'quvchi qalbiga yetkazishga erishgan. Bu esa portret vositasida yaratilgan obrazlarning tarjimada ham estetik, ijtimoiy va ma'naviy yuksak tarzda saqlanishiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Словарь иностранных слов. – Москва: “Русский язык”, 1988.
2. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – М.: «А ТЕМП», 2010.
3. Словарь литературоведческих терминов. – М.: “Мысл”, 1974.
4. Қурононов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 226.
5. Иброҳимова Ш. Бадий асарлар таржимасида қаҳрамон портретининг берилиши // Таржима масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: Муҳаррир, 2012.
6. Hamidov X., Athamjonov Q. Badiiy tarjimada personaj portretini qayta yaratish muammolariga doir (yapon tilidan badiiy tarjimalar misolida). // “Madaniyatlararo muloqot masalalari: til, matn, tarjima”: ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2016. – B. 114-118.
7. سعيد نفيسى. نيمه راه بهشت. – تهران، ۱۳۴۴. – ۲۹۰ ص.
8. Саид Нафисий. Жаннатнинг ярим йўлида // форсчадан Алимулла Ҳабибуллаев таржимаси. – Тошкент, Ғафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1974.

MUNDARIJA		
I SHO‘BA. TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI		
1.	Zuhriddin ISOMIDDINOV. Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	Uzoq JO‘RAQULOV. O‘zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	Xurram RAHIMOV. Alisher Navoiyning “Munojot” asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА. Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	Ne‘matilla OTAJONOV. Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	Rukhsana IFTIKHAR. Beautification of Mughal women	26
7.	Наталья ФИЛИМОНОВА. Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	Kosimboy MAMUROV, Nargiza TILAKOVA Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai’s Uzbek and English ghazals	34
9.	Xayrulla HAMIDOV. Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	Ирода СИДДИКОВА. К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO‘JAYEVA. Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарый МАДРАИМОВ. Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабур и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	Supriya BANERJEE, Iroda UMAROVA Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	Ziyodaxon TESHABOYEVA. “Boburnoma”da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	Zulhumor MIRZAEVA. Politics under the mask of poetics: Chulpon’s translations in the 1920s-1930s	62
16.	Abdumajid MAMADALIYEV. Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	Muhammadjon ABDUVALIYEV. Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	Shermurod SUBHON. Ijodiy kengashlarda	84

20.	Shermurod SUBHON. Kitobxon oldida mas’uliyat	97
21.	Murtazo SAYDUMAROV, Mahmudaxon SAYDUMAROVA. O‘zbek adabiyotining ilk romani tarjimalarida lingvomadaniy xususiyatlar va semantik o‘zgarishlar	100
22.	Mahmadiyor ASADOV. Tarjima – qiyosiy adabiyotshunoslikning tadqiqot obyekti	107
23.	Toshtemir ALIMOV. Gender as a linguistic and cultural parameter in literary translation	113
24.	Tozagul MATYOQUBOVA. Ilk hasbi hol qasida va uning o‘zbek tarjimoni	116
25.	Dilafruz MUHAMMADIYEVA. “Boburnoma”ning turkcha tarjimasi bilan bog‘liq muammolar	120
26.	Umida TURAeva. Some challenges of translating forensic terminology between English and Uzbek	125
27.	Елена ПАНОВА. Мифопоэтическая традиция и проблемы перевода и функционирования онимов в волшебной повести «Алиса в стране чудес» Л. Кэрролла	128
28.	Gulnoz MAMARASULOVA. Siyosiy matn tarjimasining lingvokulturologik jihatlari	137
29.	Эльнора БАГАВОВА. Эволюция переводческих теорий: от традиционных подходов к современным тенденциям	140
30.	Dilfuza KHUDAIBERDIEVA. Translation studies: traditional and modern approaches	144
31.	Gulnoz MAMARASULOVA, Ruxshona CHO‘LIYEVA. Diplomatik matnlarning tarjimada ifodalanishi	148
32.	Dilshod AMIRQULOV. Tarjimashunoslikda til tipologiyasi asosida komparativ yondashuv	151
33.	Tozagul NASRULLAEVA. Literary translation as interpretation: on the basis of Dreiser’s literary works	154
34.	Мохира ЭШКУВАТОВА, Достонбек АХМАДОВ. Роль лингвострановедческого компонента в обучении переводу	156
35.	Islom TURDIYEV. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ayrim ish yuritish terminlarining tarjima talqinidagi muammolari	160
36.	Фотима УМИРЗАКОВА. Проблемы традиционных и современных подходов в немецком переводе	163
37.	Shohsanam BEKMURATOVA. Maqollar tarjimasida tarjimonlarining lingvomadaniy yondashuvlari	166
II SHO‘BA. QIYOSIY TILSHUNOSLIK MASALALARI		
38.	Sayed Mohamed Ahmad KORAYEM. Principles for developing comparative linguistic studies	171
39.	Nedim BAKIRCI. Milli kimlik inʼsasinda halk biliminin ishlevi	183
40.	Farhad RAHIMI. Beş, bel, bilek, elik/ el ve ilik kelimelerinin etimolojik ve anlamsal bağlantilari	190

41.	Farhad RAHIMI. Nezirali'nin Çağatay türkçesi sözlüğünün yanlışları üzerine iii	196
42.	Сырга ОРУНБАЕВА, Долон МАЛДЫБАЕВ, Сагынбек ОРУНБАЕВ, Минаим МЫРЗАКМАТОВА, Жумакадыр КАРАМОЛДОЕВ. Горы и их лингвистические особенности: типология высот и культурных различий	215
43.	Saodat MUHAMMEDOVA, Kosimboy MAMUROV. Reforming the Uzbek latin alphabet: balancing phonology and global usability	221
44.	Jamoliddin YOQUBOV. O‘zbek va fransuz tillarida “ona” leksemasi ifodalanishining lingvomadaniy xususiyatlari	223
45.	Valijon VOSITOV. Inkor kategoriyasi lingvistik voqelik sifatida	228
46.	Khushnuda SAMIGOVA. Identifying the semantic component of affectionate form	230
47.	Nargiza DOSBAYEVA. Specific features of intercultural interaction in the course of teaching foreign languages	234
48.	Наргиза РАШИДОВА. Арабские заимствования в узбекском языке	237
49.	Ulugbek KARIMOV. Evolution of the cyborg in 21st-century science fiction	240
50.	Kamola ABDULLOEVA. Diskursiv shaxsning grafik vositalar orqali aks etishi	243
51.	Malohat BADALBAYEVA. The special lexicon of emergency situations in global linguistics	246
52.	Nargiza MIRZALIYEVA. Abdulla Qahhor va Ernest Xeminguey hikoyalari qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlari: badiiy tahlil va qiyosiy yondashuv	250
53.	Azizjon SHARIPOV. Yozma manbalarda Hirotning tarixiy toponimikasiga doir ma’lumotlar: Shohrux Mirzo davri	253
54.	Марина ИСКАКОВА. Тюркоязычный мир от древности	263
55.	Nargiza YUSUPOVA. The impact of artificial intelligence on comparative philology and translation studies	268
56.	Feruzaxon KARIMOVA. Aksiolingvistikada ma’naviy qadriyatlar talqini	272
57.	Zebiniso BEKMURADOVA. O‘zbek va fransuz maqollaridagi xiazmlarning stilistik, semantik va lingvokulturologik tahlili	276
58.	Sabohat QAHHAROVA. Yassaviy hikmatlarining lingvokulturologik tahlili	279
59.	Dildora KENJAYEVA. “Boburnoma”da antroponimlarning etimologik o‘ziga xosligi	283
60.	Gulchexra IBRAGIMOVA. Ingliz tilida abbreviatura va akronimlarning lingvistik tahlili	287
61.	Asror YUSUPOV. Lug‘at maqolasi strukturasi nazariyasining rivojlanishi	289

III SHO‘BA. QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI		
62.	Islamjan YAKUBOV. Rudakiy adabiy-estetik qarashlari va lirik qahramon kechinmalari	293
63.	Islamjan YAKUBOV. Tragik konflikt, tragik holat va tragik qahramon	299
64.	Dilnavoz YUSUPOVA, Kemal Yavuz ATAMAN. Uch tazkira qiyosi	308
65.	Gulnoz XALLIEVA, Sitora SHAHOBOVA. “Middlemarch” va “Anna Karenina” asarlarida ayol obrazining o‘rni	316
66.	Bahodir XOLIQOV. Britaniya adabiyoti va o‘zbek mifologiyasida daydi yog‘dularning badiiy xususiyatlari	320
67.	Gulnoz XALLIYEVA, Farangizbonu ADAMOVA. “Jek Raymond” romanida Jek obrazi tahlili	323
68.	Nuriddin ALTINBOYEV. Qiyosiy tahlilda tipologiya va ta’sir fenomeni	326
69.	Gulnoz XALLIYEVA, Iroda ABDULLAYEVA. The nature of satirical characters in the works of Jonathan Swift	330
70.	Mohinur SOTVOLDIYEVA, Gulnoz KHALLIEVA. The poetics and typology of father figures in world literature: a comparative study	333
71.	Xafiza KUCHKAROVA. Badiiy adabiyotda peyzajning o‘rni	336
72.	Dilafro‘z QAHNAROVA. Zamonaviy o‘zbek qissachiligi: xalq an’analari va yangi badiiy shakllar	340
73.	Elmira HAZRATQULOVA. Temuriylar davri adabiy muhitida ustoz-shogird munosabatlari	344
74.	Тоҳир ТУРДИБОЕВ, Нигора ЖЎРАЕВА. Беҳбудий таълимотида ижтимоий-маърифий масалалар	347
75.	Ma’suma OBIDJONOVA. Ingliz va o‘zbek adabiyotida ilmiy fantastikaning narratologik asoslari	351
76.	Эльмира АДИБЕКОВА, Сўлтан САНИЯТ. Türk masallarında hayvan motifleri: geyik motifinin kültürel yansimalari	357
77.	Эльмира АДИБЕКОВА, Сая БЕРІКҚЫЗЫ. Türk-islam kimliginin sembolü olarak Носа Ahmet Yesevi türbesi	368
78.	Эльмира АДИБЕКОВА, Гүлнұр ЕСЕНГЕЛДІ. Karaşaş Ana türbesi ve halk inançlarında kadın Evliya imgesi	375
79.	Дильфуза МАМЕТОВА, Малика ПРИСТАЕВА. Keloğlan ile padişahin kizi masalinin Anadolu, Uygur, Gagavuz varyantlarında kahraman ideali	383
80.	Карлыгаш БОРБАСОВА, Какимжан БИШМАНОВ, Мира БАЛТЫМОВА. Сравнительный анализ текстов Корана, Библии и Торы по проблеме межрелигиозного диалога и укрепления общенационального единства	394
81.	Улжан ТУНГАТОВА, Алуа АЛШЕР. Сравнительный анализ идей толерантности в Коране и Библии	400
82.	Ляззат АЛИЕВА, Möldir NIŞANHAN. Masalların mitolojik mirasi: şamanizm ve islam’in izleri	404

83.	Ынтымакгул НУРМАГОМБЕТОВА. Бейсенбай Кенжебаев зерттеулеріндегі қазақ және түркі әдеби мұраларының тарихи-филологиялық зерделенуі	412
84.	Saltanat YERALIYEVA. The writing of Khoja Akhmet Yasawi’s “Diwani hikmet” in turkic language	420
85.	Yorqinoy ISMONOVA. Bola timsolining roman obrazlari tizimidagi o‘rni	423
86.	Динара САЗАНОВА. “Диуани хикмет” мәтініндегі сопылық терминдердің рухани-философиялық мағынасы	427
87.	Шахноза КАРИМОВА, Жұлдыз МҮСІРКЕП. Akbura Evliya türbesi: türk-islam mimarisi ve halk inanci arasindaki bağ	433
88.	Bahodir ABSAMADOV. Shekspirning “Venetsiya savdogari” asarida komik adolat va axloqiy kinoya	440
89.	Ghalib ZEYAD. The evolution of Uzbek language, literature, and culture: the enduring legacy of Alisher Navai	445
90.	Axror QODIROV. O‘zbek qissachiligida xarakter va kolliziya: Qo‘Chqor Norqobil ijodi misolida XX–XXI asr badiiy talqinlarining evolyutsiyasi	451
91.	Мұратбек БАҒИЛА, Қанзада ЖҰБАНЫШЕВА. Тілді деңгейлік оқыту жүйесінің ғылыми негіздері	457
92.	Sevinchoy YOQUBOVA. G‘oyaviy-badiiy konsepsiya va poetik obrazlar hissiy tonalligi	461
93.	Munira KARIMOVA. The poetics of human and animal characters in Uzbek prose	472
<p>IV SHO‘BA. KOMPARATIVISTIKA VA METODIKA: TIL, ADABIYOT TA‘LIMI TIPOLOGIYASI</p>		
94.	Назаркул ИШЕКЕЕВ, Рима ЗАЙЫРКУЛОВА. Ааламдашуу доорунда медициналык багытта окуп жаткан чет элдик студенттерге «Манас» эпосу жана «Махабхарата» эпосундагы идеяларды салыштыруу менен тарбиялоонун мүмкүнчүлүктөрү	480
95.	Ирина ЯНОВСКАЯ. Формирование риторической компетенции в системе профессиональной подготовки студентов нефилологических специальностей	487
96.	Лариса БАСОВА, Светлана ДРАЧЕВА. Повышение качества обучения русскому языку в странах постсоветского пространства: опыт Тюменского государственного университета	490
97.	Айгул АЙТБЕНБЕТОВА, Нургул ЖОЛДАСОВА. Қазақ тілін оқытудағы цифрлық ресурстар: тиімділігі мен болашағы	494
98.	Muxabbat MATQURBONOVA, Umida YANGIBOYEVA. Ikki tillilik sharoitida o‘zbek tili ta‘limining komparativ tahlili	498
99.	Зулхумар ЖУМАНОВА. Роль алгоритмов в формировании навыков устной и письменной речи студентов	500
100.	Максим ЧИКОВ, Диляра ЗАРИПОВА. Проблемы подготовки специалистов в тройке языков русский-английский-узбекский и пути решения	504
101.	Раъно ИСАМУТДИНОВА. Система упражнений для развития навыков устной речи на занятиях по русскому как иностранному	509

102.	Зулфия КУРБАНОВА. Методика работы с текстом на занятиях по русскому как иностранному	513
103.	Nilufar BURIYEVA. Sun’iy intellekt vositalari asosida o’quvchilarning lingvokulturologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi	516
104.	Шахло УРИНОВА. Методика формирования лексической компетенции студентов в процессе изучения русского как иностранного	520
105.	Gulnoz MAMARASULOVA. Geopolitical meanings in media discourse	524
	V SHO’BA. КОМПАРАТИВИСТИКА YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA	
106.	Saida SULTANOVA. Badiiy tarjimaga o’rgatishda an’anaviy va zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	529
107.	Зухра МОЛДАБАЕВА, Айжан ЖАНҒЫЛЫШ. Коммуникативтік құзыреттілікті қалыптастырудағы инновациялық әдістер	533
108.	Barno ABDULLAYEVA. “Boburnoma”ning xorijiy tillarga tarjima qilinishi	539
109.	Zilola ERGASHEVA. The transformation of translation practices through artificial intelligence technologies	544
110.	Dilfuza ZOYIROVA, Aziza YORIQULOVA. Tarjima jarayonida ekvivalentlik tamoyilining an’anaviy talqinlari	547
111.	Anvar MIRZAQULOV. Ikkinchi jahon urushidan so’ng sinxron tarjimaning paydo bo’lishi va rivojlanishi	549
112.	Shuhrat MULADJANOV. Different approaches to the lingua-stylistic analysis in literary translation	552
113.	Gulshan ERGASHEVA. Tarjimashunoslikda an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar: o’zbek va nemis tilidagi frazeologizmlar talqinida	555
114.	Dilnoza SHONAZAROVA. Xabarlar tarjimasi va lokalizatsiyasi	559
115.	Умида МУХАММАДИЕВА. Язык и культура: трудности перевода национально-культурных особенностей	562
116.	Gulnoza XUDAYQULOVA. Badiiy asarlarni tarjima qilishda uchraydigan ba’zi frazeologik muammolar	567
117.	Shoira XODJAYEVA. Bilvosita tarjimaning muammolari: an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar	570
118.	Djamila BEGJANOVA. Paremiologik birliklar tarjimasida lingvokulturologik ekvivalentlik	573
119.	Shaxnoza IBRAGIMOVA. Linguistic representations of characters and peculiarities of translating their original names in “A farewell to arms”	577
120.	Fazilat XABIBULLAYEVA. Mumtoz adabiy manbalar tarjimasida: arxaik leksika jahon tarjimashunosligi kontekstida	580
121.	Maftuna RO’ZMETOVA. Fentezi adabiyoti tarjimasida madaniy konnotatsiyalarning ifodalanishi	584
122.	Maftuna SAPAROVA. “Al-qistosu-l-mustaqim fi ilmi-l-arud” asarining ingliz tilidagi tarjimasida xususida	588